



NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI

Odinaxon Ismanova Urumbayevna

Andijon davlat chet tillari instituti nemis tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrasini o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087623>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-November 2023 yil
Ma'qullandi: 04- November 2023 yil
Nashr qilindi: 08-November 2023 yil

KEY WORDS

Tarjima, dunyo halqlari, klassik she'riyat, milliy adabiyot, tushuncha, mahorat

ABSTRACT

Tarjima jarayonida so'z yasash vositalarinig hozirgi kundagi keng rivojini hisobga olgan xolda, ular faqat bir so'z vositalarini ikki yoki ko'proq tilga taqqoslab o'rganishda yechim topish mumkinligi xaqida gap ketadi.

Tarjima xaqida gap ketganda turlicha fikrlar, g'oyalar va turli hil ko'rinishlardagi yondashuvlar mavjudligi hatto hozirgi kunda ham sezilib qoladi. Ba'zi olimlar esa bir fikrga kela olmay bir biriga zid, qarama-qarshi fikrlarni keltirib turaveradilar. Bu esa ko'p hollarda tortishuvli, munozarali vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Mavzunig dolzarbligi va hozirgi holati: Xozirda butun dunyo limlari orasida tarjimachilik bo'yicha 2 xil qarash mavjud. 1-guruh olimlari tarjima mavjud emas degan fikrni ilgari suradi va buni isbotlashga astoydil xarakat qiladilar. Bu borada ularga Vilgelm von Humboltning "Meine Sprache ist mein Welt" degan mashhur iborasi qo'l keladi. Ya'ni: Mening tilim bu mening dunyoyimdir. Ularning fikriga ko'ra til mening dunyoyim ekan nega u xamma uchun tanish bo'lishi kerak. Axir u menga, mening xalqimga tegishliku? Mening dunyoyimda boshqalarga nima bor? Deya tarjima mavjud emas degan fikrni ilgari suradi. Navoiy asarlarini Shekspir yoza olmaydi. Shekspirnikini esa Gyote. Gyotening asarlariga o'xshatishga agar Pushkin xarakat qilsa, baribir uning ijod maxsuli Gyotenikidan farqli chiqadi, -deyishadi. Chunki yuqoridagi ijodkorlarning har birini shaxsiy fikri, dunyoqarashi bor. Birining dunyoqarashi ikkinchisidan farq qiladi.

Tajriba qismi: Xech qachon bir-biriga aynan o'xshash bo'lmaydi. Har doim asar tarjima qilinganda yana yangi asar paydo bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham asarni tarjima qilish mumkin emas deya e'tiroz bildiradilar. 2-guruhdagi olimlar esa bu fikrlarni qat'iyon rad qilishadi. Va yana bir buyuk nemis faylasufining quyidagi fikrlarini dasturul amal qilib olishadi. "Logishes Denken aller Volker sind gleich" ("Dunyo xalqlarining mantiqiy fikrlashi bir-biriga o'xshash") Agar dunyo xalqlari mantiqan bir-biriga o'xshash fikrlasa demak ularning tushunchalari ham deyarli bir xil bo'ladi. Bir - birining shaxsiyatini, urf odatlarini tushunsa, unda o'zaro tilini ham tushunishi mumkin degan g'oyani ilgari surishadi va buni amaliy isbotlab berishgan. Tarjima mavjud degan fikr ko'pchilik uchun yoqimliroq eshitiladi. O'rinli, bexato qilingan tarjima har ikki tomon uchun ham tushunarli va qadrlil hisoblanadi.

Zero:

Oy o`rtanar ko`zlarida yosh, Ko`ksi dog`u yuragi qiyma

Der: "Ey falak men edim quyosh, Nega meni qilding tarjima? "

satrlarida Erkin Vohidov tarjimachilik ishining nihoyatda nozik ish ekanligini ta`kidlagan. Ya`ni: agar u quyosh bo`lsa yu, tarjima jarayonida oy bo`lib qolsa bu qo`pol xato hisoblanadi. Shuning uchun ham tarjimon tarjima qilayotgan paytda asarni yoki she`rni (tarjima qilinayotgan tekstni) qay holatda, qayerda kim tomonidan va nima uchun, qanday maqsadda ishlatilayotganligini, qaysi mamlakatdagi hodisa ekanligi-yu, qanday urf-odatlar borligigacha to`liq bilimga ega bo`lishi lozimdir. Masalan, buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub Farhod va Shirin dostoni ilk bora rus tiliga tarjima qilinganda juda katta qiyinchilikka duch kelingan. Chunki sharq klassik she`riyatining ushbu namunasi tarjima qilish ancha mushkul ish edi. Rus tarjimoni oldida nafis she`riyat dahosi, genial shoirning ulug`vor siymosi turar edi. Navoiy dostonni yozishga kirishayotib, o`z qarshisida Nizomiy va Dehlaviy singari ijod azamatlari turganini bilgan, bu to`g`rida o`ziga hisob berib, ular ko`tarilib chiqqan balandlikka chiqish va ularga teng asar yaratish oson emasligini yaxshi tasavvur qiladi va

Emas osom bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq, degan.

Buyuk, o`tkir qalm sohibi xazrati Navoiyki, original ijodiga nisbatan shunchalik mas`uliyat sezgan ekan, rus tarjimoni ham Navoiy panjasiga panja urishda bunday katta yukni ko`tarmay qolmagan. Mas`uliyatli ishga mas`uliyat bilan qarash kerak ekanligi tarjimonda katta metin iroda talab qiladi. Tarjimada asarning badiiy va estetik qiymatini to`g`ri aks ettirish va kitobxonda unutilmas zavq uyg`ota olish uchun tarjimon xayotni va badiiy asarga tasvirlanayotgan fizik, ijtimoiy, psixologik va boshqa g`ayri insoniy va ekstra lingvistik omillari o`rganadi, chunki u til, uning lug`ati, grammatik, fonologik va sintaktik hususiyatini bilsa-yu, real borliqdan behabar bo`lsa, qo`pol xatoliklarga yuz tuban ketishi mumkin. Xalqlarning turmush tarzi, urf odatlari ruhiy dunyosi, imo ishora tilidagi belgilarning kommunikativ funksiyalari ham tarjimon bilishi lozim bo`lgan g`ayri insoniy omillardan hisoblanadi.

Tarjimon ikki milliy adabiyot o`rtasidagi aloqachi. Voqealar oqimini original asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga muallif kabi singib borishi lozim. Jukovskiydek buyuk tarjimon ham shunday qilgan. U ingliz shoiri Tomes Greyning (1716-1771) Qishloq qabristonida yozilgan marsiyasini tarjima qilar ekan, o`z ishidan ko`ngli to`lmaydi, 1839 yilda may oyida Angliyaning Vindzor qishlog`iga, Tomes Greyga ilhom baxsh etgan o`sha qishloqqa boradi. U yerda bu ajoyib poemani qaytadan o`qib chiqadi. Shundan so`ng asliga yaqin bo`lgan boshqa variantini yozishni boshlaydi. Faustning birinchi fransuscha tarjimasini qilgan Jan Batist Lemarkan asarning qorong`i joylarini yoritib berishni Gyotening o`zidan so`rgan ekan. Jukovskiy Odisseyani nemis tilidan tarjima qilar ekan, grek tili va adabiyoti bo`yicha mutaxassis, professor Grasgof maslaxatiga amal qiladi. O`zbek tarjimonlari Yo`lbars terisini yopingan paxlavonni rus tilidan, gruzin rustavelishunosi K Chiginadzedan, Al`fred Kurilla Navoiy asarlarini nemis tiliga o`girar ekan akademik shoir G`afur Gu`lom yordamiga tayanganlar. Adabiyotshunos olimlar, Navoiyshunos professorlar A Qayumov, A Xayitmetovlar rus tarjimoni V Derjavinga Saddi Iskandariy va Xayrat-ul abror dostonini rus tiliga o`girishda ilmiy maslahatlar bilan ko`maklashdilar. Doktor Yan Kamorovskiy Alpomishni

slovyan tiliga tarjima qilishda professor V M Jirmunskiyning ko`magi bilan ish tutdi. Bunday badiiy aloqa asl nusxa tilini mukammal bilmaydigan tarjimon uchun qariyb ikkinchi til vazifasini o`taydi. Ukrain yozuvchisi va tarjima nazariyachisi O Kundznich so`zalarida chuqur ma`no bor: "Tarjimon o`zga milliy olam ichiga kirishib ketishi, uni o`ziga singdirib olishi, unga chin dildan berilgan bo`lishi, o`z qalbidan joy olgan san`at asarini yaratgan yurtning muxlisiga aylanishi kerak".

Asliga monand, hamohang nafis tarjima yaratish uchun bu ijodiy hamkorlikka to`g`ridan to`g`ri tarjima qilganda ham, taglama orqali tarjima qilganda ham katta ahamiyatga ega. Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko`rinishi. Bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko`rinishi. Aslyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko`ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko`rinishlarga ham ega bo`lishi mumkin. Tarjima qad. davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o`zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og`zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan. Zamonlar osha tarjimaga bo`lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san`ati ekanligi o`zgarmaydi. Tarjimaning ko`lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma`rifiy darajasiga bog`liq va o`z navbatida u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta`sir etadi. "Tarjima" termini bir tildan ikkinchi tilga o`girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi. Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san`at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — aloxida "badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma`noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o`tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon aslyatning san`at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an`analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hamma vaqt o`z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezon bo`lib xizmat qiladi. Nizomiyning "Xisrav va Shirin" dostonini o`girgan Qutb ("Nizomiy bolidan holva pishurdim") tarjima nusxa ko`chirish kabi bir ish bo`lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo`lishi kerakligini aytadi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o`ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an`analari bo`lganligini ko`rsatadi. Hozirgi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o`z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o`nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she`rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi. Tarjima nusxa ko`chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, Tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalandiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta`siri katta bo`ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O`zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg`ariy, Rabg`uziy, Qutb, Navoiy, Bobur,

Munis, Ogahiy va boshqalar ijodida tarjima katta o'rin egallaydi.

Olingan natijalar tahlili va xulosa: 20-asr o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va boshqa badiiy tarjima sohasida ham samarali ijod qilganlar. Badiiy tarjima sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Ro'zimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I. G'afurov, M. Mirzoidov, g'. To'rabekov, T. Alimov va boshqa professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abduraxdunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, 3. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta.

Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va qonuniyatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi, tarjimonga o'girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliy adabiy an'analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. 20-asr o'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning 2 yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Professor J. Sharipov tadqiqotlariga asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, professor F. Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. N. Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi. O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning insoniy jihatlari keyinroq — o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'girishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladi. Masalan, Najmiddin Komilov ("Xorazm tarjima maktabi", 1987), Quadrat Musayev ("Tarjimaning lingvostilistik muammolari", 1988), Muhammadjon Xolbekov ("O'zbek-fransuz adabiy aloqalari: tarjima, tanqid va idrok tadorigida", 1991), Q. Jo'rayev ("She'riy tarjimalarni xalqaro adabiy va folklor kontekstida qiyosiy o'rganish", 1991) ning doktorlik tadqiqotlari yuzaga keldi. Shuningdek, tarjima muammolariga bag'ishlangan o'nlab nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. I. G'afurov, A. Abduazizov, Q. Musayev, O. Mo'minov, N. Qambarov, Sh. Sirojiddinov kabi taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlarimizning sa'y-harakati tufayli tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalari chop etildi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Zvezda Vostoka", "O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", "Filologiya masalalari" jurnallarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid maqolalar, bahs-munozaralar bosilmoqda. Vaholanki, o'tgan "XX asr – tarjima asri" (P. F. Kaye) tarzida tarixda muhrlangan bo'lsa, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi "kommunikativ vosita" (P. M. Toper) sifatida yanada ham muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap. Bu fikr FITning so'nggi yillarda London, Moskva, Melburn va Shanxay simpoziumlarida ham olimlar tarafidan takror-takror aytilib o'tildi. Tarjimon o'z kitobxonlarini boshqa xalq bilan tanishtirar ekan uning o'zi ham ma'lum darajada o'sha xalqning vakili bo'lib qoladi. Aks xolda muallif unga o'zining barcha xis-tuyg'ulari-yu, o'y fikrlarini original asarda o'z ifodasini topgan yuksak ruh va jo'shqinlikni ishonib topshirmasligi mumkin. Umuman san'at

koshonasining shinam va ko`rkam bo`lishi bino chizmasining qanchalik puxta va aniqligiga, bezaklarning bejirimligiga, me`morning maxorati va quruvchilar mehnatiga bog`liq. Ammo, bunda binoning qanday materialdan qurilganligi, qurilish materialining sifati ham katta ahamiyatga egadir. Tarjimada esa asosiy "QURILISH VOSITALARI" dan biri so`z bo`lib, u tilning asosiy materiali hisoblanadi. Shuning uchun ham til xaqida gap borganda tinglovchi nazarida birinchi navbatda o`sha tilning so`z boyligi gavgaldanadi. Asarni tarjima qilishga kirishishdan oldin tarjimon o`z-o`zidan: Shoirning qalbida alanglanib yotgan otashni men ham o`z qalbmida his eta olamanmi; asl nushada aks etgan ma`no noziklarini men ham tarjimada bera olamanmi; grammatikani bilamanmi; she`r tuzilishidan xabardormanmi; nafasat bilan qo`pollikni farqlay oladigon quloq menda bormi?- deb so`rashi kerak. Ana shu savollarga tarjimonning vijdoni javob qaytara olgandagina u ishini qo`lga olishi mumkin. V A Jukovskiy 1848 yilda P A Pletnevga yozgan xatida shuxrat qozonish uchun emas, balki vatanga madaniy yodgorliklar qoldirish maqsadida tarjima qilishini aytadi. Xuddi shu fikrni u Gomerning "Odiseya" dostoni tarjimasiga kirish so` dostoni tarjimasiga kirish so`z o`z o`rnida yozgan maqolasida ham takrorlaydi. "Xozircha mening asosiy maqsadim amalga oshdi", -deb yozadi u,- Gomerning ilhom parisi kekxa umrimning ko`pgina soatlarini zar bilan bezadi. Gomer sodiq vakili bo`lish ammo qomerning sodiq vakili bo`lish ammo qanday qilib, Gomer tilini bilmagan xolda uning nomidan ruscha gapirish mumkin, deb so`rarsiz... shundan so`ng tarjimon bu ajoyib dostonni yunon tilini bilmagan xolda rus tiliga o`girganini hikoya qilgandan so`ng, tarjimon bu ajoyib dostonni yunon tilini bilmagan xolda rus tiliga o`girganini aytib beradi. Chunonchi, u Dyusseldorfdagi yashagan vaqtida Gomer asarlarini sharxlash ishi bilan shug`ullanuvchi qadimgi yunon tili va adabiyoti mutaxassisi bo`lgan professor Grassgof bilan tanishadi. Grassgof butun dostonni asl nusxasida qo`ldan ko`chirib, xar bir yunoncha so`zning ostiga uning nemischa variantlarini ham kirgizib chiqqan. Odatda xar bir so`z o`zining lug`atdagi lug`aviy ma`nosidan tashqari, bir qancha ko`chma ma`nolarni ham anglatadi. Ammo, ma`no nozikligi jihatidan bir biridan farq qiluvchi so`zlar ham mavjudki, biz bularni sinonimlar deb ataymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ismanova O.U. Turli tizimli tillarda tarjimon mahorati. Universal journal of social sciences. 2023. humoscience.com [https://humoscience.com/index.php/ss/article/view/1628]
2. Ismanova O.U. Xorijiy tillarni o`qitishda har bir o`quvchi bilan individual shug`ullanish va ko`prik til mohiyati. O'zbekistonda fanlararo innovatsialar va ilmiy tadqiqolar jurnali. bestpublication [http://ESJindex.org/search.php?id=5952]
3. Beyer H. Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. Leipzig. VEB Institut 1987
4. Hojiyev A. Tilhsunoslik terminlarining izohli lug'ati.- Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002
5. Imyaminova Sh. S. Nemis tili frazeologiyasi. -T: Mumtoz so'z, 2011